

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

RAXMATOV OBID IBOD O‘G‘LI

**AVTONOM ISSIQXONALARNING QUYOSH VA ISSIQLIK NASOSLI
ENERGIYA TA‘MINOTI TIZIMI**

05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Raxmatov Obid Ibod O'g'li

Avtonom issiqxonalarining quyosh va issiqlik nasosli energiya ta'minoti
tizimi..... 5

Рахматов Обид Ибод Угли

Солнечно-теплонасосная система энергоснабжения автономных теплиц 25

Rakhmatov Obid Ibod ugli

Solar heat pump system for power supply of autonomous greenhouses..... 50

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

RAXMATOV OBID IBOD O‘G‘LI

**AVTONOM ISSIQXONALARNING QUYOSH VA ISSIQLIK NASOSLI
ENERGIYA TA‘MINOTI TIZIMI**

05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5112 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qmii.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarov Alisher Bekmurodovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponetlar:

Yuldashev Isroil Abrievich
texnika fanlari doktori, professor

Fayziyev To'lqin Amirovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "___" _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Qarshi davlat texnika universiteti konferensiyalar zali. Tel.: (+99875) 224-02-89, faks: (8375) 224-13-95, e-mail: kstu@kstu.uz).

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 224-02-89, faks: (8375) 224-13-95 e-mail: kstu@kstu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil "___" _____ dagi №___ raqamli reestr bayonnomasi).

G'.N. Uzoqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, texnika fanlari doktori, professor

X.A. Davlonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, texnika fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

B.E. Xayriddinov

Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy
darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda issiqxonalarining issiqlik ta'minotida tabiiy yoqilg'i-energiya resurslarini tejash, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish, yashil texnologiyalarga asoslangan quyosh energetik qurilmalari asosidagi avtonom energiya ta'minoti tizimini ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda. Dunyoda aqlli issiqxonalarini rivojlantirish dasturlariga ko'ra, 2022 yilda 1,7 milliard AQSh dollariga baholangan qayta tiklanadigan energiya manbalari asosidagi issiqxonalarining global bozori 2030 yilga kelib 3,6 milliard AQSh dollari miqdoriga yetishi va 2022-2030 yillardagi tahlil davrida yillik o'sish surati 9,5 foizga oshishi kutilmoqda¹. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, avtonom issiqxonalarini issiqlik va elektr ta'minoti tizimida tabiiy yoqilg'i manbalariga asoslangan energetik qurilmalar va tizimlardan foydalanish ekologik va iqtisodiy samaradorlikni pasayishiga olib kelmoqda. Shu sababli, energiya samarador quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi avtonom energiya ta'minoti tizimini issiqxonalarda qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda issiqxonalarda yashil texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirishning ilmiy-texnologik asoslarini ishlab chiqish, kontinental iqlim sharoitlari uchun qayta tiklanadigan energiya manbalariga asoslangan avtonom energiya ta'minoti tizimlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, issiqxonalar joylashgan hudud iqlim sharoitidan kelib chiqib issiqxonalarining maqbul konstruksiyasi va qoplama materiallarini aniqlash, quyosh radiatsiyasi, quyosh harakat trayektoriyasi va atrof-muhit harorati o'zgarishiga bog'liq issiqxonalarining energiya balansi tenglamalarini ishlab chiqish, issiqxonalarda o'rnatilgan quyosh fotoelektr panellari samaradorligiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni tadqiq qilish va sirtini changdan tozalash texnologiyalarini ishlab chiqish, issiqxonalarda quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi energiya ta'minoti tizimlarining samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ustuvor hisoblanadi. Shu sababli, hozirgi vaqtda issiqxonalarining hududning iqlim sharoitlariga moslashtirilgan energiya samarador quyosh va issiqlik nasosli avtonom energiya taminoti tizimini ishlab chiqish va energetik parametrlarini ilmiy asoslashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda issiqxonalarini energiya samaradorligini oshirish, jumladan, quyosh energiyasi asosida energiya tejamkor texnologiyalar va tizimlarni joriy etish, quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi energiya ta'minoti tizimlaridan samarali foydalanish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi "2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-sonli qarorida "...ijtimoiy soha obektlari va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohalarida hamda iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya

¹ <https://www.globenewswire.com/newsrelease/2023/12/11/2794082/28124/en/Smart-Greenhouse-Global-Strategic-Industry-Report-2023-2030-AgTech-Emerges-as-New-Buzzword-in-Agricultural-Growing-Adoption-of-IoT-Presents-Vast-Opportunities.html>

samaradorligini oshirish orqali respublika hududlarida energiya taqchilligi qoplanishini ta'minlash, bu boradagi ishlarni kompleks tashkil etish..."² bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda issiqxonalarining quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi energiya tejamkor avtonom energiya ta'minoti tizimini ishlab chiqish va joriy etish dolzarb ilmiy-texnik masalalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 noyabrdagi PQ-413-son "Issiqxona xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4477-son "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022 yil 2 dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida hamda shu soha doirasida qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish usullarini rivojlantirish, ilg'or texnologiyalar, fotonika va nanotexnologiyalar asosida texnologiyalar va qurilmalar yaratish" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Issiqxonalarining tashqi omillarga bog'liq issiqlik balans tenglamalarini ishlab chiqish va qayta tiklanadigan energiya manbalari qurilmalari asosida energiya samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga xorijlik yetakchi olimlar, jumladan, V.P. Sethi (Hindiston), U. Çakir (Turkiya), J. Chen (Xitoy), A. Mellalou (Marokash), B.M.Karambasti (Eron), B. Paris (Gretsiya), S.M. Dragichevich (Serbiya), S. Agrebi (Tunis), K. Wang (Xitoy), A. Nems (Polsha), O. Ozgenera (Turkiya), A.M. Pendjiyev (Turkmaniston), M.L. Romanovich (Rossiya) va boshqalar katta hissa qo'shishgan.

Respublikamizda quyosh issiqxonalarining o'zgaruvchan iqlim sharoitlarida maqbul konstruksiyalarini ishlab chiqish, issiqlik balansini matematik modellashtirish va isitish tizimlarining energiya samaradorligini oshirish borasida R.A. Zohidov, R. Avezov, A. Vardiyashvili, B.E. Xayriddinov, Sh.I. Klichev, B.S. Rasaxodjaye, G'.N. Uzoqov, T.Sodiqov, M.D.Kim, Yu.Yakubov, J.S. Axatov, K.A. Samiyev, I.A. Yuldashev, X.A. Davlonov, Sh.H. Ergashevlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan, jumladan, O'zR FA "Fizika-Quyosh" IChB, Fizika-texnika instituti, Toshkent davlat texnika universiteti, Qarshi davlat texnika universiteti va Buxoro davlat universiteti olimlari tomonidan salmoqli ilmiy ishlar

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi PQ-57-son "2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

amalga oshirilgan. Xususan, ular tomonidan issiqxonalarining energiya balansini, tashqi harorat, shamol tezligi, quyosh radiatsiyasiga bog'liq energiya samaradorligini tadqiq qilish, turli konstruksiyali issiqxonalarni issiqlik, sovuqlik va elektr balans tenglamalarini ishlab chiqish, issiqxonalarni maqbul o'lchamlarini aniqlash borasida ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan.

Erishilgan ijobiy natijalarga qaramasdan, quyoshning harakat trayektroyasi, issiqxonalarining optimal konstruktiv o'lchamlari va orientatsiyasiga bog'liq maksimal yig'indi quyosh radiatsiyasini aniqlash, keskin kontinental o'zgaruvchan iqlim sharoitlarida issiqxonalarining quyosh va issiqlik nasosli avtonom energiya ta'minoti tizimini ishlab chiqish va tadqiq qilish bo'yicha yetarlicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmagan. Shu sababli, issiqxonalarining quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi energiya tejamkor avtonom energiya ta'minoti tizimini ishlab chiqish va energiya samaradorligini oshirish dolzarb ilmiy-yexnik vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqoti bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "IL-4821091659-"Hudud iqlimining meteorologik xususiyatlarini hisobga olgan holda gibrid issiqlik ta'minoti tizimlarining ilmiy-texnik asoslarini ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental loyiha (2022-20224 y.y.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zgaruvchan iqlim sharoitlarida ikki qiya konstruksiyali issiqxonalarining quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi avtonom energiya ta'minoti tizimini ishlab chiqish va samaradorligini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

issiqlonalarining quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi avtonom energiya ta'minoti tizimining texnologik sxemasini ishlab chiqish;

ikki qiya konstruksiyali avtonom issiqxonani fizik-matematik modellashtirish va parametrlarini asoslash;

avtonom issiqxonaga uchun issiqlik nasosini modellashtirish va energetik ko'rsatkichlarini tadqiq qilish;

ikki qiya konstruksiyali avtonom issiqxonani issiqlik balansini modellashtirish va issiqlik-texnik parametrlarini hisoblash;

avtonom issiqxonaning quyosh fotoelektr qurilmalari samaradorligini tadqiq qilish va sirtini tozalash texnologiyasini takomillashtirish;

issiqlik nasosli avtonom quyosh issiqxonalarining energiya ta'minoti tizimini texnik-iqtisodiy va energiya samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obykti sifatida quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi avtonom issiqxonaga hamda uning energiya ta'minoti tizimi qabul qilingan.

Tadqiqotning predmeti quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi ikki qiya konstruksiyali avtonom issiqxonaning energiya balansini, harorat rejimi va energiya samaradorligini tadqiq qilish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik va imitatsion modellashtirish, issiqlik va elektr texnikasining nazariy asoslari, o'xshashlik va o'lchamliklar nazariyasi, issiqlik almashinuv jarayonlarini tajribaviy tadqiqot qilish va tajriba natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

quyosh panellari sirtini changdan tozalash qurilmasi o'rnatilgan va tarmoqqa integratsiya qilingan quyosh fotoelektr stansiyasi, quyosh vakuum suv isitish kollektorlari va havo-suv tipidagi issiqlik nasosli qurilmalar asosida takomillashgan avtonom issiqxonaning energiya tejamkor issiqlik va elektr ta'minoti tizimining texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

suvni ikki bosqichli tozalash filtrlari va avtomatik boshqarish tizimi o'rnatilgan quyosh fotoelektr panellari, panellar sirtini changdan tozalash qurilmalari, issiqlik nasoslari va vakuumli quyosh kollektorlaridan tarkib topgan issiqxonaning avtonom energiya ta'minoti tizimi ishlab chiqilgan (№FAP2431);

issiqxonaga tushadigan maksimal yig'indi quyosh radiatsiyasining issiqxona nishabining egilish burchagi, issiqxonaning konstruktiv koeffisienti, issiqxona joylashuv koordinatasi va orientatsiyasi, issiqxona qoplama materiali va quyoshning harakat trayektoriyasiga bog'liqligini hisoblash imkonini beradigan tenglamalar asosidagi matematik model ishlab chiqilgan;

avtonom issiqxonaning o'zgaruvchan iqlim sharoitlarida energiya yuklamasini aniqlash imkonini beradigan balans tenglamalari asosidagi matematik model quyosh radiatsiyasi, tashqi havo harorati va shamol tezligi o'zgarishiga, issiqxonada issiqlik va elektr yo'qotishlarga, issiqlik nasosi va quyosh energetik qurilmalarining parametrlariga bog'liq ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

avtonom issiqxonaning quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi energiya tejamkor energiya ta'minoti tizimi ishlab chiqilgan (foydali modelga patent № FAP 2431 "Avtonom issiqxona" 06.03.2024 y.);

o'zgaruvchan iqlim sharoitlarida ishlaydigan issiqxona quyosh fotoelektr qurilmalarining sirtini energiya samarador changdan tozalash texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishlarining ishonchliligi zamonaviy o'lchash asboblari yordamida olingan va qayta ishlangan tajriba natijalardan foydalanilganligi, quyosh va issiqlik nasosli qurilmalarning energetik ko'rsatkichlarini aniqlashning zamonaviy matematik modellari va qayta ishlash uslublari, hisobiy va tajribaviy natijalarning mosligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati avtonom issiqxonaning energiya yuklamasi konstruktiv o'lchamlari va qoplama materiali, quyosh radiatsiyasi, tashqi harorat, shamol tezligi, issiqxonada issiqlik yoqotishlar, issiqlik nasosi va quyosh energetik qurilmalarining parametrlariga bog'liqligini hisoblash imkonini beruvchi issiqlik balansi asosidagi matematik modeli bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zgaruvchan iqlim sharoitlarida quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosida avtonom issiqxonalarning energiya ta'minoti tizimi hamda quyosh fotoelektr qurilmalar sirtining changdan energiya tejamkor tozalash texnologiyasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Issiqxonalarning quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi avtonom energiya ta'minoti tizimi ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

avtonom issiqxonaning energiya ta'minoti uchun O'zbekiston Respublikasi Intelektual mulk markazidan foydali modelga patent olingan (№ FAP 2431, 06.03.2024). Natijada, issiqxonani energiya tejankor isitish va elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi avtonom energiya ta'minoti tizimi ishlab chiqilgan.

Issiqxonani isitish va elektr energiyasi bilan ta'minlashda quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi energiya ta'minoti tizimi "Fayzullayev Muxiddin" MChJ fermer xo'jaligida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025 yil 26 may 05/04-04-254-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan energiya ta'minoti tizimini issiqxonaga joriy qilish orqali bir mavsumda ananaviy isitish tizimlariga nisbatan 1835 m³ tabiiy gaz, 2260 tonna shartli yoqilg'i tejash hamda tabiiy gaz yonganda 3395 kg atmosferaga CO₂ ajralib chiqadigan issiqxona gazlarini kamaytirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dessirtatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan 2 ta xalqaro va 4 ta respublika jo'rnallarida ilmiy maqolalar nashr qilingan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellektual mulk markazi"ning foydali modeliga patent hamda 3 ta EHM dasturiy mahsulot uchun mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyektini va predmetini tavsiflangan hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Issiqxonalarning yashil texnologiyalar asosidagi avtonom energiya ta'minoti tizimining zamonaviy holati tahlili"** deb nomlangan birinchi bobida jahon amaliyotida issiqxonalarni energiya ta'minotida yashil texnologiyalardan foydalanishning zamonaviy holati, turli konstruksiyali issiqxonalarning energiya samaradorligini oshirish usullari, avtonom issiqxonalarda tabiiy yoqilg'i resurslarini tejash texnologiyalari, issiqxonalarning kombinatsiyalashgan energetik qurilmalar asosidagi energiya ta'minoti tizimini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlillari keltirilgan. Bajarilgan ilmiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, issiqxona o'rnatiladigan hudud koordinatasi, quyosh harakat trayektoriyasi va tashqi omillarga (quyosh radiatsiyasi, shamol tezligi, harorat) bo'g'liq maqbul o'lchamlari va orientatsiyasini aniqlash

modeli, o'zgaruvchan iqlim sharoitlarida issiqxonalarining quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi energiya tejamkor avtonom energiya ta'minoti tizimini ishlab chiqish, ularni issiqlik-texnik parametrlarini asoslash, iqtisodiy va ekologik samradorligini baholash masalalari yetarlicha tadqiq qilinmagan. Mavjud issiqxonalarining avtonom energiya ta'minoti tizimini ishlab chiqish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot va tahlillar asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirildi.

Dissertatsiyaning “**Avtonom issiqxonalarini quyosh va issiqlik nasosli energiya ta'minoti tizimini modellashtirish**” deb nomlangan ikkinchi bobida issiqxonalarining quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi avtonom energiya ta'minoti tizimining sxemasi, ikki qiya konstruksiyali issiqxonaning maqbul o'lachamlari va orientatsiyasini aniqlash matematik modeli, bug'-kompresorli issiqlik nasosini Matlab/Simulink tizimida modellashtirish va avtonom issiqxonaning issiqlik balansini matematik modellashtirish natijalari keltirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ilk marotaba chiqindi suvlarni qayta ishlash filtrlari bilan jihozlangan quyosh fotoelektr panellari sirtini tozalash texnologiyasi va elektr tarmoq bilan integratsiya qilingan quyosh fotoelektr stansiyasi, kombinatsiyalashgan quyosh issiqlik kollektori va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi issiqxonaning avtonom energiya ta'minoti tizimi ishlab chiqildi (FAP №2431). 1-rasmda issiqxonaning quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi avtonom energiya ta'minoti tizimining sxemasi keltirilgan.



1-metal rama; 2-quyosh fotoelektr qurilmalari; 3-o'lchovchi datchiklar; 4,5-suv quvurlari; 6-lotok; 7-metal tayanch; 8,9-ikki bosqichli tozalash filtrlari; 10-suvni yig'ish baki; 11,12,13-sirkulyatsion suv nasoslari; 14-kontroller, 15-boshqaruvchi kontroller; 16-akkumulyator batareyalar; 17-invertor; 18-shit; 19-metal tayanch; 20-suv baki; 21-bug'latgich; 22-kompressor; 23-to'rt quvurli klapan; 24-drossel ventil; 25-avtonom issiqxona; 26-issiqlik akkumulyatorli suv baki; 27-kondensator; 28-freon harakatlanuvchi quvurlar; 29,30-ventillar; 31-issiqlik nasosi; 32,33-ventilyatorlar; 34-bug'latgich; 35-quritish apparati.

1-rasm. Issiqxonaning quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi avtonom energiya ta'minoti tizimining sxemasi

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida tadqiqot obyekti sifatida foydali maydoni 50 m², hajmi 172,5 m³ oyna bilan qoplangan ikki qiya konstruksiyali quyosh issiqxona tanlandi. Quyosh issiqxonasini 2023 yil 15 noyabrdan 2024 yil 15 martigacha bo'lgan davrda, kenglik 38,86 va orientatsiya 0° dan 90° gacha 5° interval bilan hisoblashlar amalga oshirildi. Matematik modellashtirish uchun asosiy tenglamalar quyida keltirildi.

$$k_i = \frac{L_i}{W_i}, \quad (1 \leq k_i \leq 12.5) \quad (1)$$


$$\beta_i = tg^{-1} \left(\frac{1.5 \cdot 2}{W_i} \right), \quad (23^\circ \leq \beta_i \leq 56^\circ) \quad (2)$$

$$I_{YQR} = \sum I_{hi}(\beta_i, k_i, \gamma_i) \cdot S_i \quad (3)$$

$$\sum I_{YQR} = [(1 - F_t) + \rho \cdot F_t] \cdot [I_b \cdot R_b \cdot \tau_b + I_d \cdot R_d \cdot \tau_d + \rho_g \cdot I_H \cdot R_g \cdot \tau_g] \cdot S_i \quad (4)$$


bunda: k_i – issiqxona asosi uzunligining eniga nisbat koeffitsienti; β_i – issiqxona nishabining egilish burchagi; γ_i – issiqxona joylashuvining orientatsiyasi; F_t – quyosh radiatsiyasining umumiy ulushi (0,35); ρ – nur qaytish koeffitsienti (0,1); $\sum I_{YQR}$ – issiqxonaga tushadigan yig’indi quyosh radiatsiyasi.

Avtonom issiqxonaning maqbul orientatsiyasi va konstruktiv o’lchamlarini hisoblash modeli va algoritmi ishlab chiqildi. 2-rasmda ikki qiya konstruksiyali issiqxonaning joylashuv modeli keltirilgan.




2-rasm. Issiqxonaning geometrik modeli

3-rasmda ikki qiya konstruksiyali issiqxonada yig’indi quyosh radiatsiyasi maksimal tushishda modellashtirish blok-sxemasi va 4-rasmda issiqxonaga tushadigan yig’indi quyosh radiatsiyasining ko’rsatgichlari keltirilgan. Bunda noyabr (a), dekabr (b), yanvar (c), fevral (d), mart (e) oylari uchun mos ravishda issiqxonaning maqbul parametrlari $\gamma_1=40^\circ$, $\beta_1=52^\circ$; $\gamma_2=30^\circ$, $\beta_2=53^\circ$; $\gamma_3=38^\circ$, $\beta_3=52^\circ$; $\gamma_4=52^\circ$, $\beta_4=52^\circ$; $\gamma_5=65^\circ$, $\beta_5=41^\circ$ bo’lganda o’rtacha yig’indi quyosh radiatsiyasi $\sum I_{YQR1}=4617$ MJ, $\sum I_{YQR2}=9502$ MJ, $\sum I_{YQR3}=8641$ MJ, $\sum I_{YQR4}=8343$ MJ, $\sum I_{YQR5}=4559$ MJ teng bo’lishi aniqlandi. Ushbu keltirilgan oylar uchun o’rtacha optimal issiqxona parametrlari $\gamma_{opt}=45^\circ$, $\beta_{opt}=50^\circ$ va maksimal yig’indi quyosh radiatsiyasi $\sum I_{max}=35660$ MJ teng bo’ladi.




3-rasm. Modellashtirish blok-sxemasi



a – noyabr; b – dekabr; c – yanvar; d – fevral; e – mart.

4-rasm. Yig’indi quyosh radiatsiyasining ko’rsatgichlari


Bajarilgan tadqiqotlar natijasida 5-rasmda konstruktiv o'lchamlari bir xil bo'lgan standart ($\beta=60^\circ$; $\gamma=0^\circ$) va taklif etilayotgan ($\beta=50^\circ$ va $\gamma=45^\circ$) issiqxonaga tushadigan yig'indi quyosh radiatsiyasining solishtirish natijalari keltirilgan. Qarshi shahri iqlim sharoitida 15 noyabrdan 15 martga qadar taklif etilayotgan issiqxonaga (1) jami 35660 MJ va standart issiqxonaga (2) jami 28600 MJ yig'indi quyosh radiatsiyasi tushishi aniqlandi. Ushbu mavsumda quyosh energiyasidan foydalanish samaradorligi 25 % ga ko'pligi asoslandi.



1-optimallashtirish orqali olingan natijalar; 2-standart holatdagi olingan natijalar

5-rasm. Solishtirish natijalari

Issiqxonani issiqlik nasosli isitish tizimini samaradorligini baholash maqsadida bug'-kompressorli issiqlik nasosining termodinamik hisobi bajarildi. 6-rasmda issiqxonaga o'rnatiladigan bug'-kompressorli issiqlik nasosini parametrlarini hisoblashda P-h va T-S diagrammalari keltirilgan.



1-kompressor, 2-ishchi suyuqlik (xladagent), 3-kondensator, 4-issiqlik yuklamasi (radiator), 5-drossel ventil, 6-bug'latgich, 7-past potentsiilli manba.

6-rasm. Bug'-kompressorli issiqlik nasosi (a) va siklining P-h va T-S diagrammalari

Bug'-kompressorli issiqlik nasosidagi umumiy massa va energiya balansining tenglamalari quyidagicha ifodalanadi:

$$\sum m_k = \sum m_{ch} \quad (5)$$

$$Q_k = Q_b + W_{kom} \quad (6)$$

bunda: Q_k – kondensatordan olinadigan issiqlik quvvati, kW; Q_b – bug'latgichdagi issiqlik quvvati, kW; W_{kom} – kompressorning umumiy quvvati, kW.

Kompressorning quvvati quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$W_{kom} = m_r \cdot (h_2 - h_1) \quad (7)$$

bunda: m_r – ishchi suyuqlik (xladagent) massasi, kg; h_1 – 1-nuqtadagi entalpiya, kJ/kg; h_2 – 2-nuqtadagi entalpiya, kJ/kg.

Ishchi suyuqlik (xladagent) massa sarfi quyidagi formula orqali aniqlandi:

$$m_r = \rho_s \cdot V_k \cdot \eta_v \cdot n \quad (8)$$

bunda: V_k – kompressorning ishchi hajmi, m^3 ; η_v – hajmiy samaradorlik; n – kompressorning aylanma tezligi; ρ_s – ishchi suyuqlik (xladagent) zichligi.

Issiqlik nasosining P-h va T-s diagrammalari parametrlari asosida bug'latgichdagi issiqlik miqdori quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_b = m_r \cdot (h_1 - h_4) \quad (9)$$

2-nuqtadagi entalpiya:

$$h_2 = h_2' + C_p \cdot (T_1 - T_2) \quad (10)$$

2-nuqtadagi entropiya:

$$S_2 = S_2' + C_p \cdot \ln\left(\frac{T_1}{T_2}\right) \quad (11)$$


bunda: T_1 – kondensatorning o'ta qizish harorati, °C; T_2 – kondensatorning harorati, °C; h' – bug'lanish entalpiyasi, kJ/kg; S' – bug'lanish entropiyasi, kJ/°C; C_p – o'ta qizib ketgan bug'ning issiqlik sig'imi, kJ/°C.

Isitish koeffisienti son jihatdan issiqlik nasosining issiqlik ishlab chiqarish unumdorligini (issiqlik quvvati) sarflangan elektr energiyasi miqdoriga (elektr quvvat) nisbatiga teng:

$$\varphi = \frac{Q_k}{W_{kom} + W_q} = \frac{m_r \cdot (h_2 - h_3)}{m_r \cdot (h_2 - h_1) + W_q} \quad (12)$$


bunda: α – issiqlik nasosining yig'indi isroflar koeffisienti (0,3-0,4); T_k – ishchi suyuqlikning (xladagent) kondensatsiyalanish harorati, °C; T_b – ishchi suyuqlikning (xladagent) bug'lanish harorati, °C; h_4 – 4-nuqtadagi entalpiya, kJ/kg; W_q – qo'shimcha sarflangan elektr energiyasi (ventilyator va boshqarish tizimi), kWh.

Bug'-kompressorli issiqlik nasosini hisobi asosida 7-rasm (a) TMN1-F90BER "havo-suv" bug'-kompressorli issiqlik nasosini Matlab/Simulink tizimidagi modellashtirish blok-sxemasi, motor chastotasi (b) va quvvatini (v) o'zgarish dinamikasi keltirilgan. Bunda motor chastotasi tashqi haroratga bog'liq 15...75 Hz va quvvati 0,8...3,4 kW hacha o'zgarishi aniqlandi.




7-rasm. Bug'-kompressorli issiqlik nasosining Matlab/Simulink tizimidagi modellashtirish blok-sxemasi (a), motor chastotasi (b) va quvvat (c) o'zgarish garfiklari

8-rasmda kondensatoridagi issiqlik miqdorining (a) va isitish koeffitsientining (b) atrof-muhit haroratiga bog'liqlik natijalari keltirilgan. Tashqi muhit harorati -15...+15 °C, kondensatoridagi harorat 45, 50 va 55 °C bo'lganda isitish koeffitsienti (φ) 2,25...5,5 issiqlik miqdori 5,5...12 kJ ga bo'lishi modellashtirish orqali aniqlandi.



8-rasm. Issiqlik nasosi kondensatorning issiqlik quvvaining atrof-muhit harorati o'zgarishiga (a) va isitish koeffitsientiga (b) bog'liqlik grafiklari

Issiqlik balansini modellashtirish uchun 9-rasmda avtonom issiqxonaning issiqlik balansi hisobiy sxemasi keltirilgan. Avtonom issiqxonona devorlari qalinligi 4 mm shisha qoplamalardan yasalgan bo'lib, ular bir-biridan 1 sm qalinligidagi havo qatlami bilan ajratilgan, tom qismi qalinligi 1 sm bo'lgan shisha qoplamalardan va asos fundament qalinligi 30 sm beton qorishmalardan tashkil topgan. Issiqxonani shift qismlarida tabiiy shamollatish uchun o'lchami 0,8x10 m ochib yopish imkoniga ega derazalar o'rnatilgan.



9-rasm. Avtonom issiqxonaning issiqlik balansi hisobiy sxemasi

Tadqiqot qilinayotgan avtonom issiqxonani issiqlik balansining matematik modeli quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:


$$Q_r + Q_{i.n} + Q_{q.k} + Q_{i.q} = \dot{Q}_v + \dot{Q}_{inf} + \dot{Q}_k + \dot{Q}_t + \dot{Q}_{o'sm} \quad (13)$$

Vakuimli quyosh suv isitgich kollektori orqali olinadigan issiqlik miqdori quyidagi formula orqali aniqlaymiz:

$$Q_{q.k} = \sum I \cdot \alpha_{yut} \cdot S \cdot N \cdot \tau \quad (14)$$

bunda: $\sum I$ – yig'indi quyosh nurlanishi; α_{yut} – shishaning nur yutish koeffitsienti; S – bitta vakuum trubkaning nur yutish yuzasi; N – bitta quyosh suv isitish kollektordagi vakuum trubkalar soni; τ – isitish vaqti.

10-rasmda ikki qiya konstruksiyali issiqxonalarining devor, shift va asos orqali issiqlik yo'qotilish sxemasi (a) shift qismidagi ventilyatsiya derazalarining geometrik o'lchamlari (b) keltirilgan.



10-rasm. Devor, shift va asos orqali issiqlik yo'qotilish sxemasi (a), ventilyatsiya derazalarining geometrik o'lchamlari (b)

Issiqxonaning devorlari, shifti va asosilari orqali yoqotiladigan issiqlik miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$\dot{Q}_k = \dot{Q}_d + \dot{Q}_{sh} + \dot{Q}_a \quad (15)$$

Issiqxonaga yon devorlari orqali yoqotiladigan issiqlik miqdori issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti, yon devorlarning yuzasi, ichki va tashqi haroratlar farqiga bog'liq bo'lib, quyida matematik ifoda orqali aniqlanadi:

$$\dot{Q}_d = k_d \cdot \sum F_d \cdot (t_1 - t_2) \quad (16)$$

$$k_d = \left(\frac{1}{\alpha_1} + 2 \cdot \frac{\delta_1}{\lambda_1} + \frac{\delta_2}{\lambda_2} + \frac{1}{\alpha_2} \right)^{-1} \quad (17)$$

$$\sum F_d = 2 \cdot h_2 \cdot L + 2 \cdot h_4 \cdot W + h_3 \cdot W \quad (18)$$

bunda: k_d – devorning issiqlik uzatish koeffitsienti, $[W/m^2 \cdot ^\circ C]$; $\sum F_d$ – issiqxonaga devorlarining umumiy yuzasi, $[m^2]$; t_1 – issiqxonaning ichki harorati, $[^\circ C]$; t_2 – atrof-muhit harorati, $[^\circ C]$; α_1 va α_2 issiqlik berish koeffitsientlari, $[W/m^2 \cdot ^\circ C]$.

Issiqxonaga asosi orqali yoqotiladigan issiqlik miqdori quyidagi matematik ifoda orqali aniqlanadi:

$$\dot{Q}_a = k_a \cdot \sum F_a \cdot (t_1 - t_2) \quad (19)$$

$$k_a = \left(\frac{1}{\alpha_1} + \frac{\delta_3}{\lambda_3} + \frac{1}{\alpha_2} \right)^{-1} \quad (20)$$

$$\sum F_a = 2 \cdot h_1 \cdot (L + W) \quad (21)$$

bunda: k_a – issiqxonaga asosining issiqlik uzatish koeffitsienti, $[W/m^2 \cdot ^\circ C]$; $\sum F_a$ – issiqxonaga asosining umumiy yuzasi, $[m^2]$.

Issiqxonaga shifti orqali yo'qotiladigan issiqlik miqdori quyidagi matematik ifoda orqali aniqlanadi:

$$\dot{Q}_{sh} = k_{sh} \cdot \sum F_{sh} \cdot (t_1 - t_2) \quad (22)$$

$$k_{sh} = \left(\frac{1}{\alpha_1} + \frac{\delta_4}{\lambda_4} + \frac{1}{\alpha_2} \right)^{-1} \quad (23)$$

$$\sum F_{sh} = 2 \cdot M \cdot L \quad (24)$$

bunda: k_{sh} – issiqxona shiftining issiqlik uzatish koefitsienti, $[W/m^2 \cdot ^\circ C]$; ΣF_d – issiqxona shiftining umumiy yuzasi, $[m^2]$.

Issiqxonaning ichki yuzalardan konvektiv issiqlik berish koefitsientini aniqlash ifodasi quyidagicha (turbulent oqimlar uchun):

$$\alpha_1 = 0,1 \cdot \frac{\lambda_h}{L_p} \cdot (Gr \cdot Pr)^{0,33} \quad 10^9 \leq Gr \cdot Pr \leq 10^{13} \quad (25)$$

bunda: L_p – tanlangan tomonning perimetr uzunligi, $[m]$; λ_h – havoning issiqlik o'tkazuvchanlik koefitsienti, $[W/m \cdot ^\circ C]$.

Grasgorf kriteriyasi:

$$Gr = \frac{g \cdot \beta_h \cdot (T_1 - T_c) \cdot L_p^3}{(\frac{\mu_h}{\rho_h})^2} \quad (26)$$

Prandtl kriteriyasi:

$$Pr = \frac{\mu_h \cdot C_h}{\lambda_h} \quad (27)$$

bunda: C_h – havoning solishtirma issiqlik sig'imi, $1005 J/kg \cdot ^\circ C$; g – erkin tushish tezlanishi, $9,81 m^2/s$.

Kinematik yopishqoqlik (v_{in}) dinamik yopishqoqlikning (μ_h) havo oqimi zichligi (ρ_h) nisbatiga teng va quyida formula orqali aniqlanadi:

$$v_{in} = \frac{\mu_h}{\rho_h} \quad (28)$$

Issiqxona konstruksiyasining qoplama harorati:

$$T_c = \frac{T_1 + 2 \cdot T_2}{3} \quad (29)$$

Havo oqimining hajmli kengayish koefitsienti:

$$\beta_h = \frac{2}{T_1 + T_c} \quad (30)$$

Tashqi havo va issiqxona qoplami o'rtasidagi konvektiv issiqlik berish koefitsientini turbulent oqimlar uchun quyidagi tenglama bo'yicha hisoblash mumkin:

$$\alpha_2 = 0,037 \cdot \frac{\lambda_h}{L_p} \cdot (Re)^{0,8} \cdot Pr^{0,33} \quad Re \geq 5 \cdot 10^5 \quad (31)$$

Reynolds kriteriyasi:

$$Re = \frac{\rho_h \cdot v_{sh} \cdot L_p}{\mu_h} \quad (32)$$

bunda: v_{sh} – shamol tezligi, $[m/s]$.

Infiltratsiya orqali isrof bo'ladigan issiqlik miqdori quyidagi matematik ifoda orqali aniqlanadi:

$$\dot{Q}_{inf} = \rho_h \cdot C_h \cdot N \cdot V \cdot (T_1 - T_2) \quad (33)$$

bunda: N – infiltratsiya darajasi ikki qatlamli shisha uchun $0,00025 s^{-1}$; V – issiqxona hajmi, $[m^3]$.

Issiqxona shiftida o'rnatilgan derazalardan ventilyatsiya orqali isrof bo'ladigan issiqlik miqdori quyida bog'liqlik orqali aniqlanadi.

$$\dot{Q}_V = \rho_h \cdot C_h \cdot V_v \cdot (t_1 - t_2) \quad (34)$$

Ventilyatsiya orqali hosil bo'luvchi havo oqimi sarfi issiqxona shiftidagi derazlarning geometrik o'lchamlari va shamol tezligiga bog'liq quyidagi matematik ifoda orqali aniqlanadi:

$$V_v = \frac{A_v}{2} \cdot c_d \cdot \sqrt{2 \cdot g \cdot \left(\frac{H}{4}\right) \cdot \frac{\Delta T}{T_{o'rt}} + c_w \cdot v_{sh}^2} \quad (35)$$

bunda: A_v – shamollatish derazlarning yuzasi, [m²]; ΔT – issiqxona ichidagi va tashqarisidagi haroratlar farqi, [°C]; $T_{o'rt}$ – o'rtacha tashqi harorat, [°C]; H – havo oqimi kirish va chiqish hududlari markazlari orasidagi vertikal masofa, [m]; v_{sh} – shamol tezligi, [m/s]; c_w – yig'indi shamol bosim koeffitsienti, 0,1-0,11.

Havo oqimining sarf koeffitsienti geometrik o'lchamlarga bog'liq quyida ifoda orqali aniqlandi:

$$c_d = \frac{1}{\sqrt{1,9+0,7 \cdot \exp\left(-\frac{L_0}{32,5 \cdot H_0 \cdot \sin \alpha}\right)}} \quad (36)$$

bunda: L_0 – shamollatish derazasi bo'yining uzunligi, [m]; H_0 – shamollatish derazasi bo'yining uzunligi, [m]; α – derazaning ochilish burchagi, [grad.].


Issiqxona ekin maydonining tuprog'i va o'simliklar bilan issiqlik almashinuvi orqali isrof bo'ladigan issiqlik miqdorlari quyida matematik ifoda orqali aniqlanadi:

$$\dot{Q}_{tup} = \frac{\lambda_{tup}}{H_t} \cdot A_t \cdot (T_1 - T_t) \quad (37)$$

$$\dot{Q}_{o'sm} = k_{o'sm} \cdot F_{o'sm} \cdot (T_{o'sm} - T_1) \quad (38)$$

bunda: H_t – harorat o'zgarmas bo'lgan tuproq chuqurligi, [m]; A_t – tuproq maydoni, [m²]; $k_{o'sm}$ – o'simliklarning issiqlik yutish koeffitsienti, W/m²·°C; $F_{o'sm}$ – o'simliklar ekilgan maydon yuzasi, [m²].


Tadqiq qilingan avtonom issiqxonani issiqlik yuklamalarini aniqlash uchun 11-rasmda avtonom issiqxonani energiya ta'minoti tizimining sxemasi keltirilgan.



1-issiqxona; 2-issiqlik almashtirgich; 3-issiqlik qozoni; 4-issiqlik nasosi; 5-quyosh issiqlik kollektori; 6-quyosh fotoelektr panellari; 7-elektr uskunalar shiti; 8-sirkulyatsion suv nasoslari; 9-boshqariluvchi suv klapanlari.


11-rasm. Avtonom issiqxonani energiya ta'minoti tizimining sxemasi

Bajarilgan hisoblar va tajribalar asosida 12-rasmda atrof-muhit harorati va quyosh radiatsiyasi o'zgarishiga bo'qlik issiqxonaning issiqlik yuklamasi o'zgarish dinamikasi keltirilgan. Atrof-muhit harorati o'zgarishi va issiqxonada issiqlik yo'qotishlarni inobatga olib issiqxona bir mavsumda 14720 kWh issiqlik energiyasi iste'mol qilishi hisoblandi.



12-rasm. Issiqxonaning issiqlik yuklamasi o'zgarish dinamikasi


13-rasmda issiqxonani issiqlik energiya bilan ta'minlash grafigi keltirilgan. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, Issiqxonani quyosh bo'lmagan vaqtlarda isitishda issiqlik nasosi 11135 kWh va quyoshli vaqtlarda quyosh suv isitish kollektorlari (5x200 L) 2225 kWh issiqlik energiyasi ishlab chiqargani aniqlandi.



13-rasm. Issiqxonani issiqlik energiyasi bilan ta'minlash grafigi

Dissertatsiyaning “**Avtonom issiqxonani quyosh va issiqlik nasosli energiya ta'minoti tizimini tajriba tadqiqotlari**” deb nomlangan uchinchi bobida tajriba qurilmalarining tavsifi, tajribani o'tkazish metodikasi, quyosh fotoelektr panellar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar va sirtini changdan tozlash texnologiyasi tadqiqoti, issiqxonaning quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar orqali isitish jarayoning tajribaviy tadqiqoti natijalari keltirilgan. Foydali maydoni 50 m² bo'lgan ikki qiya konstruksiyali issiqxonada energiya resurslarini tejash va quyosh va issiqlik nasosli qurilmalar asosidagi avtonom energiya ta'minoti Qarshi davlat texnika universitetidagi “Muqobil energiya manbalari” poligonida ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi.

Dissertatsiya ishida avtonom issiqxonalariga o'rnatiladigan quyosh fotoelektr panellari sirtini changdan tozalash qurilmasi ishlab chiqildi. 14-rasmda (a) 5 kW quvvatli quyosh fotoelektr stansiyasining energiya isroflari Sankey diagrammasida keltirildi. Ushbu diagramma orqali quyosh fotoelektr qurilmalari ishlab chiqargan elektr energiyasini hisoblandi. 14-rasmda (b) 5 kW quvvatli quyosh panellarining sirtini turli xil ifloslanishlardan tozalash bo'yicha innovatsion usul taklif etildi. Bunda, quyosh panellari sirtini har 10-15 kunda suv bilan tozalash va ishlatilgan yoki yomg'ir suvlarini qayta ishlash qurilmasi takomillashtirildi.



14-rasm. Quyosh fotoelektr stansiyasi energiya isroflari keltirilgan Sankey diagrammasi (a), quyosh panellari sirtini tozalash qurilmasi (b)

